



**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## JAPANESE AND FRENCH LITERARY CONNECTIONS

**Gulnora Qosimova**

**PhD, Senior Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies,  
Tashkent, Uzbekistan**

**Abstract:** The article discusses issues such as literary relations and literary influence between Japan and France that began and intensified in the nineteenth century. First, the scope of works that embodied the impressions, opinions, and life experiences of Japanese writers who visited France will be revealed. In the process of uncovering this issue, the main focus will be on the works of such writers and poets as Nagai Kafu, Yosano Akiko and Yoshie Takamatsu. Attention is then paid to the field of translation, which has become important in the development of relations between the two countries, and examples of French literature translated into Japanese will be analyzed in relation to the works of their authors. The specific aspects observed in translating French works into Japanese will be briefly highlighted. The article will also discuss how the artistic heritage of representatives of French romanticism and naturalism such as J.Verne, father and son A.Dumas, E.Zola, and G.Flaubert influenced the works of Japanese writers.

**Key words:** Japanese literature, French literature, translation, literary relations, N.Kafu, J.Verne, A.Dumas, E.Zola, G.Flaubert.

## YAPON VA FRANSUZ ADABIY ALOQALARI

**Qosimova Gulnora**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi, PhD**  
**Toshkent, O'zbekiston**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kunchiqar mamlakat va Fransiyaning XIX asrdan boshlanib, jadallashgan o'zaro adabiy aloqalari, adabiy ta'siri kabi masalalar xususida so'z boradi. Dastlab, Fransiyada bo'lib qaytgan yapon adiblarining ushbu mamlakat bilan bog'liq taassurotlari, fikr-mulohazalari va hayotiy tajribalarini mujassamlashtirgan asarlar ko'lami ochib beriladi. Bunda asosiy urg'u Nagai Kafu, Yosano Akiko, Yoshie Takamatsu kabi yozuvchi va shoirlarning ijodiga beriladi. So'ng, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning rivojida muhim ahamiyat kasb etgan tarjima sohasiga e'tibor qaratilib, yapon tiliga o'girilgan fransuz adabiyotining namunalari ularning muallifi ijodi bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Fransuz asarlarining yapon tilidagi tarjimalarida kuzatiladigan o'ziga xos jihatlari qisqacha yoritiladi. J.Vern, ota-o'g'il A.Dyumalar, E.Zolya, G.Flober kabi fransuz romantizmi va naturalizmi namoyandalarining badiiy merosi yapon adiblari ijodiga qay tarzda ta'sir etganligi borasida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yapon adabiyoti, fransuz adabiyoti, tarjima, adabiy aloqa, N.Kafu, J.Vern, A.Dyuma, E.Zolya, G.Flober

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы литературных связей, также литературного влияния между Японией и Францией, которое началось и усилилось в XIX веке. Во-первых, будет выявлен объем произведений, воплотивших впечатления, мнения и жизненный опыт японских писателей, посетивших Францию. В процессе раскрытия данного вопроса основной акцент будет сделан на произведениях таких писателей и поэтов, как Нагаи Кафу, Ёсано Акико, Ёшиэ Такамацу. Затем уделяется внимание сфере перевода, ставшей важной в развитии отношений между двумя странами, и анализируются примеры французской литературы, переведенной на японский язык, в связи с творчествами их авторов. Кратко будут освещены специфические аспекты, наблюдаемые при переводах французских произведений на японский язык. Также обсуждается, как

художественное наследие представителей французского романтизма и натурализма, таких как Ж.Верн, отец и сын А.Дюма, Э.Золя, Г.Флобер повлияло на творчество японских писателей.

**Ключевые слова:** японская литература, французская литература, перевод, литературные связи, Н. Кафу, Ж. Верн, А. Дюма, Э. Золя, Г.Флобер.

Kunchiqar mamlakat va Fransiya o'rtasidagi turli xil sohalar bo'yicha aloqalar 1868 yil, ya'ni Meyji islohoti amalga oshirilib, "sakoku" ("zanjirlangan mamlakat") siyosatiga yakun yasalganidan so'ng jadallashdi. Meyji islohoti bilan mamlakatda boshlanib ketgan ma'rifatparvarlik harakati natijasida yapon ziyolilari G'arb madaniyati, qatorida adabiyoti va unda XIX asrgacha yig'ilib kelgan bilimlarni chuqur o'rganib, shiddat ila o'zlashtira boshladi. Rus, nemis, ingliz va fransuz so'z san'ati ustalari asarlaridan ta'sirlangan holda Meyji davri adabiyoti nomoyandalari zamonaviy yapon adabiyotining rivojlanish yo'llarini ko'p jihatdan belgilab berdi.

San'at va adabiyot sohasida ko'plab fransuz ijodkorlari va asarlarining tanishtirilishi yapon xalqida fransuz madaniyatiga nisbatan katta ishtiyoq uyg'otdi. XIX-XX asrlarda Fransiya da bir muddat bo'lib qaytgan Arishima Takeo (1878-1923), Arishima Ikuma (1882-1974), Nagai Kafu (1879-1959), Yosano Tekkan (1871-1935), Yosano Akiko (1878-1942), Ishikava Sanshiro (1876-1956), Shimazaki Toson (1872-1943), Yoshie Takamatsu (1880-1940), Musoan Takebayashi (1880-1962), Tsuji Jun (1884-1944), Okomoto Kanoko (1889-1939), Hayashi Fumiko (1903-1951), Yokomitsu Riichi (1898-1947), Komatsu Kiyoshi (1900-1962), Okada Yochiyo (1883-1962) kabi yapon yozuvchilari o'z kechinma va taassurotlarini asarlari orqali ifoda etish bilan birgalikda, fransuz asarlarini yapon tiliga tarjima qilib ikki mamlakat o'rtasidagi adabiy aloqalarni yanada mustahkamlab bordi.

Ijodida simvolizm, naturalizm an'analarini uyg'unlashtira olgan hamda Sh.Bodler, E.Zolya kabi adiblarning ta'sirida bo'lgan Nagai Kafu (1879-1959) fransuz adabiyotini kunchiqar mamlakat kitobxonlariga birinchilardan bo'lib tanishtirgan yozuvchi va tarjimonlardan biri hisoblanadi. 「ふらんす物語」

(“Fransiya haqida qissa”) Nagai Kafuning 1907-1908-yillar davomida Fransiyada kechirgan hayoti va orttirgan tajribalariga asoslangan <sup>1</sup>asari hisoblanib, ilk bora 1915 yilda nashr ettirilgan edi.

XX asr yapon romantizm she’riyatining yirik namoyandalari – Yosano Tekkan (1871-1935) va uning umr yo‘ldoshi Yosano Akiko (1878-1942) 1912-yil davomida Fransiyada istiqomat qilgan bo‘lib, ularning ushbu mamlakat bilan bog‘liq fikr-mulohazalari, kechinmalari 「巴里より」 (“Parijdan”, 1914) nomli sayohat kundaligida o‘zining badiiy ifodasini topgan. Mualliflarning ajnabiy zaminidagi xotiralari shaklida bitilgan asar ularning sayohatlari haqida ma’lumot beruvchi qaydlaridan tashqari, ko‘p miqdordagi ajoyib fotosuratlar bilan to‘ldirilgan. Turmush o‘rtog‘idan farqli o‘laroq, bari ko‘rganlarini bevosita Yaponiya bilan o‘zaro solishtirib bayon etuvchi Yosano Akiko fransuzlarni diqqat bilan kuzatish orqali fransuz madaniyatini chuqur o‘rgangan edi. Shoirada urfdagi liboslarda zamon bilan hamnafas yashayotgan erkin fransuz ayollari, ularning yurish-turishi, turmush tarzi ayniqsa, katta taassurot qoldirdi<sup>2</sup>. Umuman olganda, mazkur sayohat tabiatidan feminist bo‘lgan, hamisha ayollar huquqlari uchun kurashgan, she’rlari orqali kuchli ayollarni gavdalantirishga urg‘u bergan Yosano Akikoning ijodiga katta ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi. Mazkur o‘rinda “oilada ayolning ikkinchi darajali mavqeiga toqat qilishni istamagan, muhabbati uchun ota uyini tark etgan qiz obrazi shoironing ijodiga romantizmning inqilobiy ruhi bilan singib ketgan”ligini ta’kidlash joiz. Shoira odamlardagi samimiylik va soxtalikni tilga oluvchi she’rlarida, qanday yashash joizligini uqtirayotgan olimlarning “ikkiyuzlamachilik niqobi”ni yulib tashlashni maqsad qilgan edi<sup>3</sup>. Darhaqiqat, 「みだれ髪」 (“Chigal sochlar”, 1901), 「小扇」 (“Mitti yepchig‘ich”, 1904), 「夏より秋へ」 (“Yozdan kuzgacha”, 1914), 「火の鳥」 (“Qaqnus”, 1919”) to‘plamlari, 「君死にたまふことなかれ」 (“Sen qurbon qilma umringni...”, 1904) kabi she’rlarning muallifi –

<sup>1</sup> Ericson J. E. Nagai Kafu's Furansu monogatari: in praise of France. – University of Hawai'i at Manoa, 1981.- P.6.

<sup>2</sup> [https://www.ndl.go.jp/france/en/part2/s1\\_1.html](https://www.ndl.go.jp/france/en/part2/s1_1.html)

<sup>3</sup> А. М. Сулейманова. Религиозные мотивы в романтической поэзии Есано Акико // Известия Восточного института : Научный журнал. — 2002. — № 5. — С. 136–152. — ISSN 1813-8101.

Yosano Akikoning nomi kunchiqar mamlakatning zamonaviy jamiyati va kundalik hayotida kechayotgan jarayonlarni anglab yetib, chuqur ma'suliyat xissini tuygan ilk ijodkorlardan biri sifatida yapon adabiyoti tarixi sahifalarida saqlanib qolgan.

Yuqoridagi ro'yxatni davom ettiruvchi ijodkorlardan yana biri – shoir va fransuz adabiyotining olimi Yoshie Takamatsu (1880-1940) bo'lib, u Birinchi jahon urushi davrida Parijga sayohat qilgan hamda Parij-Sarbon universitetida tahsil olgan. 1920-yilda vataniga qaytgach, Vaseda universitetida fransuz adabiyoti bo'limini tashkil ettirib, yangi avlod shoirlarini va fransuz adabiyotining mutaxassis olimlarini tarbiyalash bilan bir qatorda, fransuz asarlarini yapon tiliga o'girib nafaqat adabiyot balki, tarjimonlik sohasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Yoshie Takamatsuning 「仏蘭西文芸印象記」 (“Fransiya adabiyoti haqida xotiralar qaydlari”, 1923) sarlavhasi ostidagi ilmiy asari fransuz shoiri va dramaturgi Pol Klyudel (1868-1955) hamda yozuvchi, adabiy tanqidchi Anatol Frans (1844-1924) ijodi, shuningdek, zamonaviy dramaturgiya, yangi tarixiy pyesalarning tahlillarini o'zida mujassamlashtirgan<sup>4</sup>. Asardagi tabiat manzaralari va insonlar o'ratasidagi o'zaro aloqalarning tasviri fransuz asarlaridan keltirilgan iqtiboslar bilan qorishiq holda mohirona ifodalangan.

Fransuz adabiyotini yapon tiliga tarjima qilinishi masalasida so'z borganda, Takamatsudan tashqari yana ko'plab tarjimonlarning faoliyati alohida tahsinga sazovar. Xususan, Kavashima Chunoske (1853–1938), Seki Naohiko, Komiyama Keisuke, Kato Siho, Nagai Kafu, Kuroiva Ryuiko kabilarning faoliyati natijasi o'laroq yapon adib va kitobxonlari Jyul Vern, ota-o'g'il Aleksandr Dyumalar, Emil Zolya, Viktor Gyugo asarlari bilan yapon tilida yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldilar.

Jahon adabiyotining durdonalaridan biri sanalgan Jyul Vern(1828-1905)ning “Le tour du monde en quatre-vingts jours” (“Dunyo bo'ylab sakson kun”, 1872) romani fransuz tilidan yapon tiliga tarjima qilingan ilk asar<sup>5</sup> sanaladi. Asar tarjimoni Kavashima Chunoske (1853–1938) fransuz tilini Yokosuka kemasolik zavodlarida

---

<sup>4</sup> [https://www.ndl.go.jp/france/en/part2/s1\\_1.html](https://www.ndl.go.jp/france/en/part2/s1_1.html)

<sup>5</sup> Takeda, K. The Introduction of French Romanticism to Japan (1868–1923). *Romance Quarterly*, 34(4), 1987. – P. 455.

o‘rgangan bo‘lib, tarjimon sifatida shoyi sotish missiyasi bilan AQShga borganida “Dunyo bo‘ylab sakson kun” romanining ingliz tilidagi tarjimasini sotib oladi va asarni tog‘ridan-to‘g‘ri fransuz tilidan yapon tiliga tarjima qilish jarayonida undan ma‘lumotnoma o‘rnida foydalanadi. Yaponiyaga qaytgach tarjimon romanning birinchi qismini tarjima qilib, 1877 yilda o‘z hisobidan nashr ettiradi. Asarning yapon tilidagi birinchi qismi kitobxonlar auditoriyasi tomonidan ijobiy kutib olindi va natijada uning ikkinchi qismi nashriyot hisobidan chop etildi. Yapon kitobxonlari bosh qahramon – Filias Fog tashrif buyurgan turli o‘lkalar bilan bog‘liq qissalar orqali dunyo aslida rang-barang ekanligidan boxabar bo‘ldilar hamda ilg‘or texnologiyalar, boylik va harbiy qudratga ega davlatlarga boshqalardan ustunligi to‘g‘risidagi o‘sha davr qadriyatlarining mohiyatini anglab yetdi. Roman va uning tarjimasini muvaffaqiyat qozonganidan so‘ng, Vernning boshqa ko‘plab asarlari ham yapon tiliga o‘girildi.

Fransuz adabiyotining yirik namoyandasi – Aleksandr Dyuma (otasi) (1802-1870) merosi, xususan, uning durdona asari – “Le Comte de Monte-Cristo” (“Graf Monte Kristo”, 1846) romani bo‘lsa, tarjimon Seki Naohiko (1857-1934) tomonidan ilk marotaba yapon tiliga tarjima qilingan. Seki Naohiko asarning tarjimasini “Tokio kunlik gazetasi”ning muxbiri bo‘lib ishlayotganida amalga oshirgan edi. U keyinchalik huquqshunos va siyosatchi sifatida ham faoliyat olib bordi. Ushbu fransuzcha ajoyib roman 117 bobdan tashkil topgan bo‘lib, qilmagan jinoyati uchun nohaq ayblangan bosh qahramon – Edmond Dantesning intiqom yo‘lidagi qissasiga bag‘ishlangan. Romanda qamoqdan qochishga muvaffaq bo‘lganidan so‘ng, katta xazinani qo‘lgan kiritgan Dantesning “Graf Monte Kristo” taxallusi bilan dushmanlaridan qasos olishga urinishi keng qamrovli syujetda yoritib beriladi. Yapon tilidagi tarjima esa o‘n yetti bobnigina qamrab qolgan bo‘lib, Dantesning qamoqqa tushib qolishigacha bo‘lgan o‘rinda yakunlangan. 1877 yilda chop etilgan tarjimaning so‘nggi o‘rnida asarning xotimasi keltirilishi tilga olingan bo‘lsa-da, keyinchalik uning to‘liq tarjimasini nashr ettirilmagan. Umuman olganda, XIX asrning oxirda Dyumaning “Les Trois Mousquetaires” (“Uch mushketyorlar”, 1844) kabi

yana boshqa ko‘plab asarlari yapon tiliga o‘girilib, keng omma e‘tiboriga havola etilgan.

Otasi kabi sermahsul bo‘lmasa-da, fransuz adabiyoti rivojiga o‘z ijodi bilan xissa qo‘shgan Aleksandr Dyuma (o‘g‘li) (1824-1895) Yaponiyada “La Dame aux camellia” (“Kameliyalar xonimi”, 1848) nomli yirik romanning muallifi sifatida tanilgan. Adibning eng yirik mazkur romani yapon tiliga 1885 yilda jurnalist va adabiyotshunos Komiyama Keisuke (1885-1930) tomonidan tarjima qilingan. Romanda “Kameliyalar xonimi” (yaponcha tarjimada “Tsubahime” deb tarjima qilinadi) laqabi bilan nom chiqargan yengiltak ayol Margarita Gotyeni qissasi hikoya qilinadi. Margarita Arman Dyugal bilan tanishib, haqiqiy muhabbatini topsada, u ushbu yosh romantik yigit bilan ayrilib, oxir-oqibat fojeaviy o‘lim topadi. Keisukening tarjimasi fransuzcha asarning yaponcha adaptatsiyasi bo‘lib, tarjimon roman mazmunini yapon kitobxonlari uchun imkon qadar tushunarli yetkazib berish maqsadida voqealar sodir bo‘ladigan makonni Yaponiyaga ko‘chiradi. Shuningdek, qahramonlar, xususan, Margarita Gyote “Haru”, Arman Dyugal “Minase Seinojyo” kabi yaponcha ismlar bilan qaytadan gavdalantiriladi. Asarning mazmuni bilan bog‘liq holda Keisuke tomonidan amalga oshirilgan tarjmaning bir qator sahifalarida uchraydigan illyustratsiyar ham o‘ta yaponcha uslubda ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Fransuz adibi, dramaturg va publitsist Emil Zolya (1840-1902) adabiy merosi aynan yozuvchi Nagai Kafuning tarjimalari o‘laroq yapon adabiy doiralari olib kirildi. 1903 yilda Nagai Kafu tomonidan XIX asrning adabiyot to‘plamini birinchi jildi sifatida 「女優ナナ」 (“Aktrisa Nana”) sarlavhasi bilan nashr ettirilgan tarjima asar Zolya qalamiga mansub “Nana” (1880) nomli yirik hajmli romanning qisqartirilgan tarjimasi<sup>6</sup>, “L'Inondation” (“Toshqin”) hikoyasining tarjimasi va 「エミールゾラと其の小説」 (“Emil Zolya va uning asarlari”) nomli tanqidiy maqolani mujassamlashtirgan. Tarjimaning muqovasida bosh qahramon – Nananing obrazini gavdalantiruvchi ayol portreti keltirilgan bo‘lib, u yapon uslubida ijod

---

<sup>6</sup> Nakamura M. The French influence in modern Japanese literature //Japan Quarterly. – 1960. – T. 7. – №. 1. – C. 57.

qilgan Hirakufu Hyakusui (1877-1933) tomonidan yaratilgan. Asar yengil tabiat ayolga aylangan va yosh paytidayoq vafot etguniga qadar jismoniy jozibasidan yuqori sinf erkaklarini vayron qilish maqsadida foydalangan teatr aktrisasi – Nananing o‘ta shavqatsiz hayoti haqida hikoya qiladi. Ma’lumki, Emil Zolya fransuz naturalizm adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri sanaladi. Zolyaning uslubi Nagai Kafu, Kosugi Tengai (1865-1952) va Tayama Katai (1872-1930) kabi yozuvchilar ijodiga katta ta’sir ko’rsatdi va Yaponiyada “shizenshyugi”, ya’ni naturalizm adabiyotining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Xususan, Yaponiyadagi naturalizm harakati (“shizenshyugi undo”) Zolyaning asosan “Le Roman experimental” (“Eksperimental roman”, 1880) nazariyasining kuchli ta’sirini his qildi.

Undagi san’at va ilmning yaqinlashuvi, ilmiy obyektivlikka bo‘lgan talab, dalillarning sinchkovlik bilan o‘rganilishi, insonni tabiat qonunlariga bo‘ysundirilishi – bularning barchasi badiiy amaliyotda kuzatuv, o‘rganish, tahlil katta rol o‘ynamagan yapon adabiyotiga qattiq ta’sir o‘tkazdi.

Muayyan bir sharoitlar va ijtimoiy muhitda yuzaga kelgan yovuzlikning asoslanib, tushuntirilib berilish motivi o‘sha davr yapon naturalizm vakillari uchun yangilik edi.

Zolyaning ortidan Kosugi Tengai o‘zining 「流行歌」 (“Urfdagi qo‘shiq”, 1902) qissasida odamlar xulq-atvorining fiziologiyalariga, muqarrar irsiyatga tobe ekanligini (qahramon o‘zining boy yer egasi bo‘lgan, axloqsiz ajdodlari qilgan gunohlari uchun aziyat chekadi) isbotlashga harakat qiladi. Kosugi Tengaining “Urfdagi qo‘shiq” qissasining muqaddimasi “Tabiat bu tabiatdir” degan yapon naturalizmning manifesti sifatida jaranglagan edi.

“Yaxshi ham, yomon ham, xunuk ham yo‘q ... Shuning uchun o‘zimizni ezgulik va yovuzlik, g‘o‘zallik va xunuklik kabi tushanchalar bilan chegaralashimiz ma’nosiz bir ish ... Yozuvchi faqatgina hodisani boricha, qanday bo‘lsa, shunday qilib ko‘chiradi... U qanaqa bo‘lishidan qat’iy nazar subyektiv omillarni umuman chiqarib tashlashi kerak” – deydi Kosugi Tengai.



Zolya asarlarning tarjimasini bilan shug'ullangan adib – Nagai Kafu uning kuchli ta'siri ostida bir qator asarlarni nashr ettirgan.

Shuningdek, 1902 yilda Nagai Kafu 「地獄の花」 (“Do‘zax gullari”) nomli qissasining muqaddimasida naturalizm dasturini yanada aniqroq ko‘rsatib bergan: “Inson o‘zidagi hayvonni yenga olmadi: fiziologiya yoki irsiyat to‘sqinlik qildi, – bular unga hayvondan kelib chiqqan ajdodlaridan meros bo‘lib qolgan. Din va axloq hayotning qora tomonlarini “gunoh” deb ataydilar... Sud ekspertizasi jinoyat izlarini qanday sinchkovlik bilan tekshirsa, biz ham hayotning bunday taraflarini shu darajada o‘rganishimiz zarur va bu bizning burchimizdir. Mana shu sababdan, men bizga meros bo‘lib o‘tgan va muayyan muhitda doimiy yuzaga chiqadigan qo‘pollik, zulm va xirs, buzuq nafsning ko‘rinishlarini hech qanday tortinishsiz tasvirlashga qaror qildim”.

Shu bois, Kafu uning ijodkor sifatidagi shaxsiyatining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan Emil Zolya va Gi de Mopassanlar kabi ilk asarlaridan boshlab inson tabiatining xunuk taraflarini yuzaga chiqaradigan hayotiy vaziyatlarning achchiq haqiqati bilan to‘qnashgan qahramonlar misolida inson mavjudligining qorong‘u tublarini yoritib berishga intilgan. Biroq, voqelikning xunuk tomonlarini aks ettirgan holda, naturalistlar oldinlari diqqat doirasidan chetda qoldirgan hayotning yangi jabhalarini o‘zlashtira boshladilar. Bu nafaqat, hayotning biologik tomoni, irsiyatga, balki, aholining quyi qatlamlari, dehqonlar, urushdagi askarlarning taqdiri kabi ijtimoiy sohalarga ham tegishli edi. Shunday qilib “naturalizm uchun harakat”da realistik tamoyillar ham paydo bo‘ldi<sup>7</sup>.

Naturalist Gustav Floberning ijodiga bo‘lgan qiziqish, 1920 yildan, ya’ni adibning “Madame Bovary” (“Bovari xonim, 1856) nomli romanining yapon tiliga tarjima qilinishi bilan boshlandi. 1935 yilga kelib esa, Flober asarlarining to‘qqiz jildidan tashkil topgan to‘plami kunchiqar mamlakat kitobxonlari e’tiboriga taqdim etildi. To‘plam fransuz adibining “Madame Bovary” (“Bovari xonim, 1856), “Salammbô” (“Salambo”, 1862), “L’Éducation sentimentale” (“Xis-tuyg‘ular

<sup>7</sup> Ходжаева Р., Қосимова Г. Япон адабиётида замонавий йўналишлар ва оқимлар. Тошкент, 2019. – Б.70-72.

tarbiyasi, 1869), “La Tentation de saint Antoine” (“Avliyo Antoniyning aldanishi”, 1874), “Trois contes” (“Uch qissa”, 1877), “Bouvard et Pécuchet” (“Buvar va Pekyushe”, 1881) kabi asarlari, shuningdek, maktublari, hamda hayotligida nashr ettirilmagan asarlarining parchalari, jiyani va shogirdi – Karolina Kommanvilning xotiralarini o‘zida mujassamlashtirgan edi<sup>8</sup>. Flober merosining tarjimalari sifatidagi mazkur ilk to‘plamga adib qalamiga mansub barcha muhim asarlarning kiritilganligi XX asr 30-yillaridagi Yaponiyada uning ijodiga nisbatan yuzaga kelgan katta qiziqishdan dalolat beradi.

Flober asarlaridan ilhomlangan adiblar orasida yapon neosensualist yozuvchisi – Yokomitsu Riichi (1898-1947) ni misol sifatida keltirish mumkin bo‘lib, u o‘zining 「日輪」 (“Quyosh”, 1923) qissasini fransuz adibining “Salambo” nomli romani asosida yaratgan edi.

Qissada tasvirlanga voqealar shartli ravishda tarixiy davrlarga tegishli bo‘lib, ular qandaydir bir qadimgi qirolliklar – Yamato, Nakoku va Umida bo‘lib o‘tadi. Qissaning markazida Umi mamlakatining qirolchasi turadi. Yaponiya hukmdorlari qahramonlar sifatida gavdalanib, ular ushbu ayolni qo‘lga kiritish maqsadida o‘zaro kurashadilar, xalqlarini nobud qiladilar va bir-birini o‘ldiradilar. Shahvoniy xohishlardan jo‘shqinlangan hukmdorlar qirolchanning yuragi kimga tegishli ekanligi bilan umuman qiziqishmaydi. Ongosti instinktlari ta’sir ostida qolgan hukmdorlarning xohishi, ular egalik qilgan xalqning taqdirini qanday kechishini belgilovchi omilga aylanadi<sup>9</sup>. Adib asarda taraqqiyot natijasida o‘zgarmagan, butun va yetuk odam obrazini yaratish maqsadida Flober kabi o‘tmishga murojaat qildi.

Shu yo‘sinda XIX-XX asrlarning yana boshqa ko‘plab yapon adiblari fransuz so‘z san’atining bir qator yetuk namoyandalari ijodi bilan yaqindan tanishib, Yevropa adabiyoti bilimlarini o‘zlashtirgan va ijod jarayoniga joriy qilgan holda zamonaviy yapon adabiyotini rivojlantirib bordilar. Yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, fransuz va yapon adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin jadal tus oldi va bunda tarjima salmoqli ahamiyatga ega

<sup>8</sup> Tomoko Mihara. Histoire de la traduction des œuvres de Flaubert au Japon // Flaubert. En étranger / Gustave Flaubert. A l'étranger/ <<http://flaubert.univ-rouen.fr/etranger/japon.php> / 2002>

<sup>9</sup> Ходжаева Р., Қосимова Г. Япон адабиётида замонавий йўналишлар ва оқимлар. Тошкент, 2019. – Б. 170.

soha sifatida namoyon bo'ldi. O'sha davr yapon adabiyoti namoyandalarining ijodkor sifatida shakllanishida ayniqsa J.Vern, ota-o'g'il A.Dyumalar, E.Zolya, G.Flober va shu kabi fransuz romantizm hamda naturalizm adabiyoti ustunlarining ta'sir kuchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qildi.

### **Adabiyotlar:**

1. Ericson J. E. Nagai Kafu's Furansu monogatari: in praise of France. – University of Hawai'i at Manoa, 1981.- P.6.
2. Nakamura M. The French influence in modern Japanese literature //Japan Quarterly. – 1960. – T. 7. – №. 1. – С. 57.
3. Takeda, K. 'The Introduction of French Romanticism to Japan (1868–1923)', Romance Quarterly, 34(4), 1987. – pp. 455–470.
4. Tomoko Mihara. Histoire de la traduction des œuvres de Flaubert au Japon // Flaubert. En étranger / Gustave Flaubert. A l'étranger/ <<http://flaubert.univ-rouen.fr/etranger/japon.php> / 2002>
5. А. М. Сулейманова. Религиозные мотивы в романтической поэзии Есано Акико // Известия Восточного института : Научный журнал. — 2002. — № 5. — С. 136–152.
6. Ходжаева Р., Қосимова Г. Япон адабиётида замонавий йўналишлар ва оқимлар. Тошкент, 2019. – 280 б.